

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS

¹Saidov Doniyor
Abdullayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrası dotsenti.
ORCID: 0009-0007-3605-2274, G-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Tijorat bankining moliyaviy barqarorligi birgina koeffitsiyent bilan emas, o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar majmui orqali baholangandagina uning risk profili to'liqroq namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada kapital, daromadlilik, xarajatlar samaradorligi, kredit portfeli sifati, likvidlik va resurslar muvozanatini yagona integral bahoga birlashtiruvchi kompleks metodika taklif etiladi. Hisob-kitoblar Xalq banki va Aloqabankning 2021-2025-yillardagi auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlari asosida bajarildi. O'nta indikator 0-100 ballik shkala bo'yicha me'yorlashtirilib, ularning iqtisodiy ahamiyatiga mos vaznlar berildi. Hisoblash natijalarida Xalq bankining integral bahosi 48,34 balldan 87,68 ballgacha oshgani, Aloqabank bahosi esa 2023-yildagi 63,50 balldan 2025-yilda 48,68 ballgacha pasaygani aniqlandi. Metodika 14 ta bank bo'yicha 70 ta kuzatuvda tekshirildi: ROC-tahlil natijasida AUC 0,908 ni tashkil etdi, olti xil vazn ssenariysida reytinglar deyarli o'zgarmadi. Shuningdek, ma'lumot manbaini almashtirish 40 foiz kuzatuvda yakuniy tasnifga ta'sir qilishi qayd etildi.

Eng. - A bank's financial stability is better captured by a combination of interrelated indicators than by any single prudential ratio. This article proposes a comprehensive methodology that integrates capital strength, profitability, cost efficiency, loan portfolio quality, liquidity, and resource balance into one quantitative score. The calculations use audited financial statements of Xalq Bank and Aloqabank for 2021-2025. Ten indicators are normalized to a 0-100 scale and weighted according to their economic relevance. The resulting score for Xalq Bank increased from 48.34 to 87.68 points, while Aloqabank's score declined from 63.50 points in 2023 to 48.68 points in 2025. The methodology was tested on 70 observations for 14 banks: the ROC analysis produced an AUC of 0.908, and the ranking remained highly stable across six weighting scenarios. The analysis also found that changing the data source altered the final classification in 40 percent of the observations.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ moliyaviy barqarorlik, tijorat banki, kapital yetarliligi, Tier 1, likvidlik, 3-bosqich kreditlar, kutilayotgan kredit zararlari, integral baholash, ROC-tahlil, sezgirlik tahlili.

❖ financial stability, commercial bank, capital adequacy, Tier 1, liquidity, stage 3 loans, expected credit losses, integral assessment, ROC analysis, sensitivity analysis.

Kirish.

Banklar jamg'armalarni kredit va investitsiya resurslariga aylantirishi, to'lovlar uzluksizligini ta'minlashi hamda iqtisodiyot subyektlarining likvidlik talabini qondirishi orqali moliya tizimining tayanch bo'g'ini hisoblanadi. Shu bois alohida bankdagi moliyaviy holatning yomonlashuvi faqat uning aksiyadorlari va kreditorlari manfaatiga emas, balki moliya tizimining umumiy barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank amaliyotida barqarorlikni baholash ko'pincha kapital yetarliligi, aktivlar sifati, likvidlik yoki rentabellik kabi alohida koeffitsiyentlar bilan cheklanadi. Biroq bunday yondashuv ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvozanatni ochib bermaydi. Masalan, kapital darajasi yetarli bo'lgan bankda resurs bazasi zaif bo'lishi yoki yuqori rentabellik likvidlik zaxirasini kamaytirish hisobiga shakllanishi mumkin. Shuning uchun turli yo'nalishdagi indikatorlarni yagona mezonda birlashtirish bankning moliyaviy holatini yaxlit baholash uchun muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kompleks o'lchashga mo'ljallangan integral metodikani takomillashtirish, uning natijalarini kengroq banklar tanlanmasida tekshirish hamda baholashdan bank boshqaruvida foydalanish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bank barqarorligini miqdoriy ifodalashga oid nazariy yondashuvlar turli davrlarda shakllangan. Diamond va Dybvig [1] bankning likvid majburiyatlar va nisbatan likvid bo'lmagan aktivlar o'rtasidagi transformatsiya funksiyasi tabiiy zaiflik manbai ekanini ko'rsatgan. Royning "safety first" tamoyili [2] hamda Boyd va Graham [3] tomonidan bank sohasi uchun rivojlantirilgan Z-score yondashuvi daromadlilik, kapitallashuv va riskni bir ko'rsatkichda birlashtirishga xizmat qiladi. Lepetit va Strobel [4] esa Z-score natijasi hisoblash usuliga bog'liq bo'lishi mumkinligini

ko'rsatib, bank barqarorligini aktivlar sifati va likvidlik ko'rsatkichlari bilan to'ldirib baholash zarurligiga e'tibor qaratadi.

Bankdagi muammoli holatlarni oldindan aniqlash masalasi Altman [5], Sahajwala va Van den Bergh [6], Kaminsky va Reinhart [7], Demirgüç-Kunt va Detragiache [8] tadqiqotlarida turli usullar orqali yoritilgan. Ushbu ishlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, bank riskini bitta universal indikator bilan to'liq ifodalash qiyin. Čihák va Schaeck [9] prudensial koeffitsiyentlarni kombinatsiyada qo'llash muammoli holatlarni ajratishda yakka ko'rsatkichlarga qaraganda samaraliroq ekanini empirik jihatdan ko'rsatgan.

Ko'p mezonli baholash yo'nalishida Doumpos va Zopounidis [10] bank indikatorlarini umumiy shkalaga keltirib, vaznli reyting shakllantirish usulini rivojlantirgan. OECD qo'llanmasi [11] kompozit indeks qurishda me'yorlashtirish, vaznlash va sezgirlikni tekshirishni asosiy metodik bosqichlar sifatida ko'rsatadi. Laeven va Levine [12] risk darajasi bankning egalik va boshqaruv xususiyatlariga ham bog'liq ekanini asoslaydi. IMF FSI yondashuvi [13] va Basel III [14] esa kapital, aktivlar sifati, daromadlilik hamda likvidlikni o'zaro bog'liq holda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda To'g'ayev [15], Bozorov [16], Abdullayeva [17] va Berdiyev [18] bank barqarorligining kapital, risk, resurs bazasi, likvidlik va nazariy jihatlarini alohida yoritgan. Shunga qaramay, turli iqtisodiy mazmundagi indikatorlarni bir xil shkalada birlashtirish, vaznlar tanloviga sezgirlikni tekshirish va ma'lumot manbaining yakuniy bahoga ta'sirini bir tizimda ko'rib chiqadigan amaliy metodika yetarli darajada shakllanmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu uch yo'nalishni yagona baholash tizimida birlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kompleks baholashda taqqoslama va statistik tahlil, qiyoslash, guruhlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez hamda integral baholash usullaridan foydalanildi. Metodikaning barqarorligi ROC-tahlil va sezgirlik tahlili orqali tekshirildi. Axborot bazasini Xalq banki va Aloqabankning 2021-2025-yillardagi auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlari tashkil etdi; kengaytirilgan validatsiya esa 14 ta tijorat bankining 70 ta bank-yil kuzatuv asosida amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Asosiy hisob-kitoblar Xalq banki va Aloqabankning 2021-2025-yillarga tegishli

auditdan o'tgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlariga tayandi. Rentabellik va sof foiz marjasi o'rtacha yillik aktivlar bazasida, xarajat-daromad nisbati esa operatsion daromadning to'liq hajmiga nisbatan hisoblandi.

Baholash uch ketma-ket bosqichda bajarildi. Avvalo har bir indikator 0-100 ballik shkalaga o'tkazildi. Musbat yo'nalishdagi ko'rsatkichlar uchun $S = 100 \cdot (x - L) / (U - L)$, salbiy yo'nalishdagi ko'rsatkichlar uchun esa $S = 100 \cdot (U - x) / (U - L)$ formulasi qo'llandi. Kredit-depozit nisbati maqsadli tipdagi indikator sifatida ajratildi: 100 foizga yaqin natija eng yuqori ballni beradi, undan ortiq yoki kam chetlashish esa bahoni kamaytiradi.

1-jadval

Kompleks baholash metodikasining ko'rsatkichlari, chegaralari va vaznlari

Ko'rsatkich	Yo'nalish	o ball	100 ball	Vazn	Iqtisodiy mazmuni
Kapital yetariligi koeffitsiyenti	Ijobiy	10	18	0,15	Zararlarni qoplash buferi
Tier 1 koeffitsiyenti	Ijobiy	8	16	0,10	Eng sifatli kapital ulushi
Sof foiz marjasi	Ijobiy	0	10	0,10	Vositachilik samarasi
Aktivlar rentabelligi	Ijobiy	-5	+3	0,10	Aktivlardan daromad olish
Xarajat-daromad nisbati	Teskari	100	40	0,10	Operatsion samaradorlik
3-bosqich kreditlar ulushi	Teskari	30	3	0,15	Qadrsizlangan aktivlar
3-bosqich bo'yicha ECL qoplash	Ijobiy	0	60	0,10	Zaxira yetarliligi
Likvid aktivlar ulushi	Ijobiy	10	35	0,10	Qisqa muddatli zaxira
Kredit-depozit nisbati	Maqsadli	40 / 400	100	0,05	Resurslar muvozanati
Leveraj koeffitsiyenti	Teskari	12	6	0,05	Balans yuki

Manba: Chegaralar Basel III, IMF FSI metodologiyasi va milliy prudensial talablar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Keyingi bosqichda me'yorlashtirilgan indikatorlar $I = \sum w_j \cdot S_j$, $\sum w_j = 1$ formulasi asosida yagona vaznli integral ko'rsatkichga birlashtirildi. Bunda har bir indikatorning yakuniy bahodagi ulushi uning bank moliyaviy barqarorligini tavsiflashdagi iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqib belgilandi. Mazkur yondashuv turli o'lchov birliklarida ifodalangan ko'rsatkichlarni yagona baholash mezoniga keltirish hamda bankning kapital yetarliligi, rentabelligi, aktivlar sifati, likvidligi va

resurslar muvozanatini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Hisoblangan integral ko'rsatkichlar talqinini soddalashtirish va banklarning moliyaviy holatini risk darajasi bo'yicha guruhlash maqsadida yakuniy natijalar to'rtta intervalga ajratildi: 80 balldan yuqori – yuqori barqarorlik, 65-79,9 ball – qoniqarli holat, 50-64,9 ball – zaiflashgan holat, 50 balldan past – yuqori risk. Ushbu tasnif bankning umumiy moliyaviy holatini nafaqat miqdoriy

baholash, balki mavjud zaifliklarni erta aniqlash va tegishli boshqaruv choralari belgilash uchun ham amaliy asos yaratadi. Baholash chegaralari tanlanmadagi eng yuqori yoki eng past natijalarga mexanik ravishda bog'lanmagan bo'lib, ular prudensial talablar, indikatorlarning iqtisodiy mazmuni hamda

xalqaro bank amaliyotida qo'llaniladigan maqsadli diapazonlarni hisobga olgan holda shakllantirildi. Shu sababli mazkur interval yondashuvi banklararo qiyosiy tahlilni amalga oshirish va moliyaviy barqarorlik darajasidagi o'zgarishlarni dinamik kuzatish uchun ham qo'llanishi mumkin.

2-jadval

Xalq bankining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Kapital yetarliligi, %	15,07	18,84	17,92	19,39	22,20
Tier 1, %	13,11	16,85	15,65	18,02	20,01
ROA, %	-4,95	-1,31	1,57	1,73	2,64
Sof foiz marjasi, %	5,36	9,85	9,97	9,05	8,92
Xarajat-daromad, %	62,60	43,88	44,27	44,10	45,58
3-bosqich kreditlar, %	32,33	26,82	22,03	13,74	5,22
3-bosqich ECL qoplash, %	41,90	52,22	53,11	70,26	56,45
Kredit-depozit nisbati, %	136,2	290,6	365,0	325,0	387,6
Likvid aktivlar, %	21,02	24,59	21,44	28,21	26,93
Leveraj, marta	5,65	10,53	9,37	5,77	5,45

Manba: Xalq bankining auditdan o'tgan hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Xalq banki ko'rsatkichlari davr davomida asosan ijobiy yo'nalishda o'zgargan. Kapital yetarliligi 15,07 foizdan 22,20 foizgacha, Tier 1 esa 13,11 foizdan 20,01 foizgacha oshgan. Bank 2021-2022-yillardagi zararli davrdan chiqib, 2025-yilda ROAni 2,64 foizga yetkazgan.

Aktivlar sifati ham sezilarli tiklangan: 3-bosqich kreditlar ulushi 32,33 foizdan 5,22 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, kredit-depozit nisbatining 387,6 foizgacha ko'tarilishi resurslar muvozanati bo'yicha asosiy zaiflik sifatida saqlanib qolgan.

3-jadval

Aloqabankning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Kapital yetarliligi, %	13,21	12,49	16,45	13,94	14,14
Tier 1, %	11,43	9,40	11,51	11,84	10,10
ROA, %	0,93	1,39	2,27	1,32	-0,72
Sof foiz marjasi, %	4,10	3,89	4,12	3,18	2,36
Xarajat-daromad, %	59,69	61,13	52,21	87,50	89,05
3-bosqich kreditlar, %	9,97	9,94	6,11	7,50	7,19
3-bosqich ECL qoplash, %	6,91	7,74	9,01	32,16	23,61
Kredit-depozit nisbati, %	121,2	126,2	123,1	102,3	136,5
Likvid aktivlar, %	22,49	27,64	14,88	21,96	23,12
Leveraj, marta	7,98	8,82	6,58	7,31	8,98

Manba: Aloqabank hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


Aloqabankda esa 2023-yilgacha kuzatilgan yaxshilanish 2024-2025-yillarda susaygan. 2025-yilda ROA -0,72 foizga tushgan, sof foiz marjasi 2,36 foizgacha

kamaygan, xarajat-daromad nisbati 89,05 foizga yetgan. Tier 1 koeffitsiyentining 10,10 foiz darajasida qolishi kapital buferining cheklanganligini ko'rsatadi. 3-bosqich kreditlar

ulushi Xalq bankiga nisbatan past bo'lsa-da, ularni ECL bilan qoplash darajasi 23,61 foiz bo'lib qolgan.

Alohida ko'rsatkichlarni yagona xulosaga keltirish uchun ular vaznli integral bahoga birlashtirildi. Hisob-kitobga ko'ra, Xalq bankining balli 2021-yildagi 48,34 dan


2025-yilda 87,68 gacha ko'tarilgan. Aloqabankda esa eng yuqori natija 2023-yilda 63,50 ballni tashkil etib, 2025-yilga kelib 48,68 ballgacha pasaygan. Ikki bankning qarama-qarshi dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Xalq banki va Aloqabank integral bahosining dinamikasi

2025-yil komponent ballarini taqqoslash integral bahoning ichki tuzilishini ochib berdi. Xalq bankida zaiflik deyarli faqat kredit-depozit nisbatiga to'g'ri kelgan (4,1 ball). Aloqabankda esa past natijalar bir nechta yo'nalishda bir

vaqtning o'zida kuzatilgan: xarajat-daromad nisbati - 18,3 ball, sof foiz marjasi - 23,6 ball, Tier 1 - 26,2 ball va 3-bosqich kreditlar bo'yicha qoplash - 39,4 ball. Ushbu farqlar 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. 2025-yilda moliyaviy barqarorlik komponentlari bo'yicha ballar

Komponentlar kesimidagi natijalar ikki bankdagi zaifliklar tabiati bir xil emasligini ko'rsatadi. Xalq bankida asosiy bosim resurslar

muvozanatida jamlangan bo'lsa, Aloqabankda rentabellik, xarajat samaradorligi, kapital sifati va zaxira qoplashi bo'yicha bir necha zaif nuqta

mavjud. Demak, tuzatuvchi choralar ham standart emas, bankning ayni zaiflik profiliga mos tarzda tanlanishi lozim.

Metodikaning ikki bank misolida shakllantirilgani uning umumiy qo'llanish imkoniyatini alohida tekshirishni talab qildi. Shu maqsadda 2021–2025-yillar bo'yicha 14 ta bank va 70 ta bank-yil kuzatuvidan iborat kengaytirilgan baza tuzildi; u bank tizimi aktivlarining qariyb 83 foizini qamrab oladi. Tashqi mezon sifatida sof zarar qayd etilishi yoki kapital yetarliligi minimal talabdan pastga

tushishi "muammoli kuzatuv" deb belgilandi. Bunday holatlar 13 ta kuzatuvda uchradi.

ROC-tahlilda egri chiziq ostidagi maydon 0,908 ga teng bo'ldi. Bu natija model muammoli va normal kuzatuvlarni yuqori darajada ajrata olishini ko'rsatadi: tasodifan tanlangan muammoli holatning normal holatga qaraganda pastroq integral ball olishi ehtimoli qariyb 91 foiz. Tasnif darajalari bo'yicha ham izchil bog'liqlik kuzatildi - yuqori barqarorlik guruhida muammoli holat yo'q, yuqori risk guruhidagi barcha kuzatuvlar esa muammoli bo'lgan.

4-jadval

Tasnif darajalari va muammoli kuzatuvlar ulushi

Tasnif darajasi	Kuzatuvlar	Muammoli kuzatuvlar	Ulushi, %
<i>Yuqori (80–100 ball)</i>	27	0	0,0
<i>Qoniqarli (65–79,9 ball)</i>	20	2	10,0
<i>Zaiflashgan (50–64,9 ball)</i>	18	6	33,3
<i>Yuqori risk (<50 ball)</i>	5	5	100,0

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Vaznlarning ekspert tarzida tanlanishi integral modellarga nisbatan keng tarqalgan e'tirozlardan biridir. Shu sabab kapital, kredit sifati va rentabellik vaznlarini ± 20 foizga o'zgartirish hamda barcha indikatorlarga teng vazn berishdan iborat olti ssenariy sinovdan o'tkazildi. Har bir holatda Spearman reyting korrelyatsiyasi 0,987 dan pastga tushmadi, ROC maydoni esa 0,891–0,915 diapazonida qoldi. Demak, banklar tartibi vaznlarning muqobil variantlariga nisbatan barqaror saqlanadi.

Integral natijaning yana bir sezgir nuqtasi - aktivlar sifati uchun qaysi ma'lumot manbai tanlanishidir. O'zbekiston sharoitida muammoli kreditlar prudensial tasnif hamda IFRS 9 bo'yicha 3-bosqich kreditlar orqali turlicha ifodalanadi. Mazkur farqning bahoga ta'sirini ko'rish uchun modeldagi aktivlar sifati indikatori navbatma-navbat ikki manba qiymatlari bilan qayta hisoblandi.

Qayta hisoblash integral bahoni ayrim kuzatuvlarda 1,18–8,29 ball oralig'ida

o'zgartirdi; 10 ta bank-yil holatining 4 tasida yakuniy toifa almashdi. Shunday qilib, kuzatuvlarning 40 foizida tasnif tanlangan ma'lumot manbaiga sezgir bo'ldi. Bu ta'sir vaznlarni o'zgartirish ta'siridan kuchliroq. IFRS 9 bo'yicha 3-bosqich ma'lumotining afzalligi shundaki, u kutilayotgan yo'qotishlarni oldindan tan oladi, mustaqil auditdan o'tadi va xalqaro taqqoslash uchun bir xil yondashuvni beradi.

Olingan natijalar integral bahoni faqat tahliliy ko'rsatkich sifatida emas, bankning choraklik risk-appetit va ALCO jarayoniga bog'langan boshqaruv instrumenti sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Amaliyotda 80 balldan yuqori natijani "yashil", 65–79,9 oralig'ini "sariq", 50–64,9 oralig'ini "to'q sariq", 50 balldan past holatni esa "qizil" zona sifatida talqin qilib, har bir zona uchun oldindan belgilangan choralar tizimini ishlab chiqish mumkin.

5-jadval

Aniqlangan zaifliklar va tavsiya etilayotgan choralar

Bank	Aniqlangan zaiflik	Tavsiya etilayotgan chora
Xalq banki	Kredit-depozit nisbati 387,6%; depozit bazasi kredit portfeliga nisbatan tor	Barqaror chakana va korporativ depozitlarni kengaytirish; resurslar muvozanatini ALCO limitlari bilan bog'lash
Xalq banki	3-bosqich kreditlar kamayishining manbalari yetarlicha ajratib ko'rsatilmagan	Qaytaruv, restrukturizatsiya va hisobdan chiqarishni choraklik hisobotda alohida ochiqlash
Aloqabank	Sof foiz marjasi 2,36%; ROA manfiy	Muddat va qayta narxlash tafvutini tahlil qilish; riskka mos narxlashni kuchaytirish
Aloqabank	Xarajat-daromad nisbati 89,05%	Jarayonlar xarajatini faoliyat asosida baholash; kam samarali kanallarni optimallashtirish
Aloqabank	Tier 1 10,10% – bufer tor	Foydani kapitalda qoldirish; kapital rejalashtirish va zaxiralashtirish siyosatini kuchaytirish
Ikkala bank	Ko'rsatkichlar alohida kuzatilishi kompleks risk profilini yashiradi	Integral bahoni choraklik risk-appetit tizimiga kiritish va zona bo'yicha triggerlar belgilash

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif takliflari.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini kompleks baholash bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Bankning moliyaviy holati bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlar ta'sirida shakllanadi. Shu sabab kapital, rentabellik, xarajatlar samaradorligi, aktivlar sifati, likvidlik va resurslar muvozanatini birgalikda hisobga oluvchi integral yondashuv yakka prudensial koeffitsiyentlarga nisbatan risk profilini to'liqroq ifodalaydi.

2. Iqtisodiy mazmuni turlicha bo'lgan indikatorlarni 0–100 ballik shkalaga keltirish uchun uch xil yo'nalish- "yuqori qiymat afzal", "past qiymat afzal" va "maqsadli qiymatga yaqinlik afzal" - bo'yicha me'yorlashtirish yondashuvi qo'llandi. Bu indikatorlarni yagona vaznli integral bahoga birlashtirish imkonini berdi.

3. Xalq bankida integral baho 2021-yildagi 48,34 ball dan 2025-yilda 87,68 ballgacha oshdi. Bunga kapital ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, rentabellikning tiklanishi va 3-bosqich kreditlar ulushining keskin qisqarishi xizmat qilgan. Shu bilan birga, 387,6 foizlik kredit-

depozit nisbati resurslar muvozanati bo'yicha asosiy xavf bo'lib qolmoqda.

4. Aloqabankda integral baho 2023-yildagi 63,50 ball dan 2025-yilda 48,68 ballgacha pasaydi. Asosiy salbiy omillar - xarajat-daromad nisbatining 89,05 foizga ko'tarilishi, sof foiz marjasining 2,36 foizgacha qisqarishi, ROAning manfiy qiymatga tushishi va Tier 1 buferining torayishidir.

5. Metodikaning ajratish qobiliyati 14 ta bank va 70 ta kuzatuvda tekshirildi. ROC-tahlilda AUC 0,908 bo'ldi, vaznlarning olti muqobil ssenariysida Spearman korrelyatsiyasi 0,987 dan past tushmadi. Bu natijalar integral bahoning muammoli holatlarni ajratish va banklar reytingini saqlash bo'yicha yetarli barqarorlikka ega ekanini ko'rsatadi.

6. Aktivlar sifati uchun ma'lumot manbaini tanlash yakuniy bahoga sezilarli ta'sir qilishi aniqlandi: prudensial tasnif o'rniga IFRS 9 bo'yicha 3-bosqich ma'lumotidan foydalanish 40 foiz kuzatuvda toifani o'zgartirgan. Shu bois metodikada axborot manbai oldindan bir xil tamoyil asosida belgilanishi, xalqaro qiyoslashda esa auditdan o'tgan IFRS 9 ma'lumotlariga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq.

7. Integral bahoni bankning choraklik risk-appetit tizimiga kiritish, ball diapazonlari

bo'yicha boshqaruv zonalarini belgilash va zaiflik profiliga qarab differensial choralarni

ishga tushirish metodikani amaliy risk boshqaruvi bilan bog'lash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Diamond D.W., Dybvig P.H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // *Journal of Political Economy*, 1983, Vol. 91, No. 3, pp. 401-419.
2. Roy A.D. Safety First and the Holding of Assets // *Econometrica*, 1952, Vol. 20, No. 3, pp. 431-449.
3. Boyd J.H., Graham S.L. Risk, Regulation, and Bank Holding Company Expansion into Nonbanking // *Federal Reserve Bank of Minneapolis Quarterly Review*, 1986, Vol. 10, No. 2, pp. 2-17.
4. Lepetit L., Strobel F. Bank Insolvency Risk and Z-score Measures: A Refinement // *Finance Research Letters*, 2015, Vol. 13, pp. 214-224.
5. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // *The Journal of Finance*, 1968, Vol. 23, No. 4, pp. 589-609.
6. Sahajwala R., Van den Bergh P. Supervisory Risk Assessment and Early Warning Systems. Basel Committee on Banking Supervision Working Paper No. 4. - Basel: BIS, 2000.
7. Kaminsky G., Reinhart C. The Twin Crises: The Causes of Banking and Balance-of-Payments Problems // *American Economic Review*, 1999, Vol. 89, No. 3, pp. 473-500.
8. Demirgüç-Kunt A., Detragiache E. Cross-Country Empirical Studies of Systemic Bank Distress: A Survey // *National Institute Economic Review*, 2005, No. 192, pp. 68-83.
9. Čihák M., Schaeck K. How Well Do Aggregate Prudential Ratios Identify Banking System Problems? // *Journal of Financial Stability*, 2010, Vol. 6, No. 3, pp. 130-144.
10. Doumpos M., Zopounidis C.A. Multicriteria Decision Support System for Bank Rating // *Decision Support Systems*, 2010, Vol. 50, No. 1, pp. 55-63.
11. OECD, European Commission, Joint Research Centre. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008.
12. Laeven L., Levine R. Bank Governance, Regulation and Risk Taking // *Journal of Financial Economics*, 2009, Vol. 93, No. 2, pp. 259-275.
13. International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators Compilation Guide. - Washington, DC: IMF, 2019.
14. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. - Basel: Bank for International Settlements, 2017.
15. Togayev S.S. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot: monografiya. - Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2023. - 126 b. - ISBN 978-9910-9438-8-1.
16. Bozorov R.X. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2020. - 52 b.
17. Abdullayeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank risklari: darslik. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. - 684 b. - ISBN 978-9943-13-878-0.
18. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020. - 73 b.